

**O'RIK MEVALARIDAN TAYYORLANGAN MURABBOLARINING
SHIFOBAXSHLIK HUSUSIYATI.****ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА АБРИКОСОВОГО ДЖЕМА.****MEDICINAL PROPERTIES OF APRICOT JAMS.****Ibroximjon Raxmonovich Asqarov***Andijon davlat universiteti**kimyo kafedrası professori***Shaxobiddin Mirzarayimovich Kirgizov***Andijon davlat universiteti**kimyo kafedrası professori***Dilfuza Muxammadjonovna Xatamova***Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'rik mevasidan tayyorlangan murabboning kimyoviy tarkibi sifat tahlili natijalari keltirilgan. Olib borilgan tajribalar natijasida o'rik konservasidan olingan ekstrakt tarkibidagi vitaminlarning organizmga ta'siri o'rganildi.*

Аннотация: *В данной статье представлены результаты качественного анализа химического состава абрикосового джема. В результате проведенных экспериментов изучено влияние витаминов, содержащихся в экстракте, полученном из консервированных абрикосов на организм.*

Annotation: *This article presents the results of quality analysis of the chemical composition of apricot jam. As a result of the conducted experiments, the effect of vitamins contained in the extract obtained from canned apricots on the body was studied.*

Kalit so'zlar: *o'rik, sharbat, qoqi, vitaminlar, kasalliklar va ularga qarshi o'rikning ta'siri.*

Ключевые слова: *абрикосы, сок, кожура, витамины, болезни и действие абрикосов против них.*

Key words: *apricots, juice, peel, vitamins, diseases and the effect of apricots against them.*

KIRISH

Ma'lumki, madaniylashtirilgan mevali o'simliklar orasida o'rik alohida o'rin tutadi. Chunki, uning hosildorligi yuqori. Hosil berishining biologik jihatdan aniqlangan davriyligi yo'qligi, yangi va quritilgan holda (eng ko'p),

sharbat, kompot va murabbo ko'rinishida ishlatiladigan o'rik mevalarining yuqori ozuqaviyligi, parhezboqligi va savdo qiymati sababli konserva va oziq-ovqat sanoatida keng qo'llanilishiga sabab bo'lmoqda.

Prunus armeniaca va Prunus brigantina – mashhur mevali o'simliklari butun Markaziy Osiyoda, ham yovvoyi, ham madaniy holda uchraydi. Tyan-Shan tog'lari, Xitoy va Nepal o'rikning vatani hisoblanadi[1]. Hozirgi vaqtda o'rik ko'p hududlarda Osiyo va Kavkazning deyarli hamma joyida meva beradi. **O'zbekistonda ekin maydoni jihatidan mevali daraxtlar orasida 4-o'rinni egallaydi.**

O'rik daraxti turli ekspozitsiyalarning barcha relyeflari va yonbag'irlarida o'sa oladi. O'rik yorug'likni yaxshi ko'radigan, qurg'oqchilikka va issiqqa chidamli ekin hisoblanadi. Biroq, o'rik o'simligi qishki va bahorgi sovuqda keskin harorat o'zgarishiga toqat qilolmaydi. Har qanday madaniy o'simlik kabi, ushbu o'simlik ham o'zining irsiy biologik xususiyatlarini va potentsial imkoniyatlarini namoyish etadi, ya'ni, qulay muhit sharoitida o'sadi[2].

O'rik – ra'noguldoshlar oilasiga mansub daraxtlar turkumi, mevali daraxt. O'rik **payvand qilib** ko'paytiriladi. Issiqsevar, yorug'sevar, qurg'oqchilik va issiqlikka chidamli, lekin namlik yetishmaganda meva tugmaydi. Ko'pincha gullagan paytda bahorgi qorasovuqlardan zararlanadi. Unumdor, serquyosh, bo'z va shag'al-toshli yerlarda yaxshi o'sadi. O'rikning 60dan ortiq navlari ma'lum. U pishmagan (g'o'ra), pishgan, quritilgan holda iste'mol qilinadi. Undan murabbo, sharbat, qoqi va boshqalar tayyorlanadi.

O'zbekistonda ayni paytda deyarli barcha hududlarda (hududning rel'yef sharoitiga qarab) o'rikning **18 navi** yetishtiriladi. Masalan, **Subxon** navi 1959 yil Davlat reyestriga kiritilgan **mahalliy nav bo'lib, daraxtining bo'yi** baland, shox-shabbasi keng piramidasimon, ko'chati ekilgandan so'ng sakkizinchi yili hosilga kiradi. **Mevasi** keng tuxumsimon, xom mevasining rangi yashil tuslidan och zarg'aldoqqacha bo'lib, ba'zan och pushti g'uborli turlari ham bor. Mevasi yirik, o'rtacha vazni – 35-40 g. Pishgan mevasining eti to'q sariq, sershira, mazasi nordonroq-shirin. Nav **ertapishar**, mevasi iyunning birinchi o'n kunligida yetiladi. **Hosildorligi** – 110,1 s/ga, eng yuqori hosildorligi 133,3 s/ga ni tashkil etadi.

Mamlakatimiz hududlarida: **Andijon, Namangan, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida** ekish uchun tavsiya qilingan[3]. Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan o'rik mahsulotlari **qator** mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Asosiy qism. O'rik murabbosini namunasidan 5-10 gr miqdorida analitik tarozida tortib olinib, 300 ml hajmdagi yassi kolbaga solinadi. Ustiga 50 ml 70% li etanol eritmasidan qo'shiladi. Aralashma magnit aralashtirgich va teskari sovutkich bilan jihozlanib, 1 soat davomida intensiv aralashtirib turgan holda

70-80^oS da qaynatiladi. Keyin 2 soat davomida xona haroratida aralashiriladi. Aralashma tindirilib filtrlab olinadi. Qolgan qismiga 25 ml 70 % etanoldan solib 2. marta qayta ekstraktsiya qilinadi. Filtratlar birlashtiriladi va 100 ml o'lchagich kolbaga solinib chizig'igacha 70% etanol bilan to'ldiriladi. Hosil bo'lgan eritma sentrifugada 6000-8000 oborot/minut tezlikda 20-30 daqiqa davomida aylantiriladi. Hosil bo'lgan eritma ustki qismidan analiz uchun olindi[4].



Adabiyotlarda birikmalarni YuSSX bilan aniqlashda elyuent sifatida fosforli, atsetatli bufer sistemalari va atsetonitrildan foydalanilgan. Bunda fosfatli bufer sistemasi hamda atsetonitrildan foydalanildi.

1-jadval

Vita minlar	O'rik murabosi konsentratsiyasi mg/mkl	Empiric formulasi	Nomi	Kimyoviy nomlanishi
B-1	0,26109 7	$C_{12}H_{17}N_4OS$	Tiamin (anevrin)	4-metil-5-beta-oksietil-N-(2-metil-4-amino-5-metilpirimidil)
B-2	4,54781 7	$C_{17}H_{20}N_4O_6$	Riboflavin	7,8-Dimethyl-10-ribitylisoalloxazine
B-6	4,00236 6	$C_8H_{11}NO_3$	Piridoksin	3-gidroksi-2-metil-piridin
B-9	1,50493	$C_{19}H_{19}N_7O_6$	Foliy kislota	N-4-2-amino-4-gidroksi-6-pteridil-metil-

				aminobenzoil-L-glutamin kislota
B-12	3,96673 1	$C_{63}H_{88}CoN_1$ $4O_{14}P$	Siano kobalamin	Cyano-5,6-dimethylbenzimidazole-cobalamin
PP	5,19915 8	$C_6H_5NO_2$	Nikotin kislota	3-piridin-karbon kislota, azin-3-kislota
C	8,38033 8	$C_6H_8O_6$	Askorbin kislota	Gamma-lakton 2,3-degidro-L-gulon kislotasi

Biologik faol (biokimyoviy jarayonlarda ishtirok eta oladigan) izomerlardan C vitamini tabiiy ravishda ko'plab meva va sabzavotlar qatori o'rikda ham mavjud ekan[5]. C vitamini (shuningdek, askorbin kislota va askorbat deb ham ataladi), sitrus mevalari va boshqa meva va sabzavotlarda mavjud bo'lgan suvda eriydigan vitamin, shuningdek, oziq-ovqat qo'shimchasi va melanodermiyani (to'q pigment dog'larni) hamda yuz ajinlari davolash uchun topikal "zardob" moddasi sifatida sotiladi. U singaning oldini olish va davolash uchun ishlatilib keladi. C vitamini to'qimalarni tiklash, kollagen hosil bo'lishi va ma'lum neurotransmitterlarning fermentativ ishlab chiqarishida ishtirok etadigan muhim oziq moddalardir[5]. U bir nechta fermentlarning ishlashi uchun zarur va immunitet tizimining ishlashi uchun muhimdir. U antioksidant sifatida ham ishlatiladi. Ko'pgina hayvonlar o'zlariga C vitamin sintez qila oladilar. Biroq, primatlar (ammo hamma primatlar emas) shu jumladan, odamlar va makakalar, ko'rshapalaklar, ba'zi kemiruvchilar va hokazo hayvonlar uni oziq-ovqat manbalaridan olishlari mumkin.

Muntazam qo'shimchalar infeksiyaning oldini olishi haqida ba'zi dalillar mavjud, ammo shamollashning davomiyligini vitamin C qisqartirishi mumkinligi haqida aniq ma'lumotlar deyarli yo'q. Qo'shimchalar saraton, yurak-qon tomir kasalliklari yoki demans (aqliy pastlik) xavfiga ta'sir qiladimi, to'liq aniq emas. Biroq suyak va to'qimalar tuzilishini yaxshilaydi. Uni og'iz orqali yoki in'yektsiya yo'li bilan olish mumkin[6]. C vitamini o'z ichiga olgan oziq-ovqatlarga sitrus mevalari, kivi, guava, brokkoli, Bryussel gullari, bolgar qalampiri, kartoshka va qulupnay qatori o'rik ham kiradi. Oziq-ovqatlarni uzoq vaqt davomida saqlash yoki pishirish oziq-ovqat tarkibidagi C vitaminini kamaytirishi mumkin.

Xulosa. Ko'rinib turibdiki, o'rik mevasidan tayyorlangan konservada aniqlangan vitaminlar hayot uchun juda muhim. Quritilgan mevalarning boy kimyoviy tarkibi terining holatini yaxshilab, yoshlikni qaytaradi. Terini tarang va ajinlardan holi bo'lishini istaganlarga esa o'rik sharbati tavsiya qilinadi. Beta-karotin bo'yoq modda bo'lsada teriga yoki sochga rang berish uchun ishlatilmaydi, balki ularni himoya qilish uchun ishlatiladi. Beta-karotin teriga kirib, hujayra ichidagi metabolizm va hujayralararo aloqalarni o'rnatadi. A vitamini (retinol) tashqaridan qo'llanilganda ko'pincha tirnash xususiyati keltirib chiqaradi. Beta-karotinda bunday nojo'ya ta'sirlar yo'q, shuning uchun o'rikni turli vitaminlar sifatida bimalol iste'mol qilish mumkin. Shuning uchun o'rik va uning qoqisi, konservasi, sharbat va kompotlari, xattoki turli shirinliklarga qo'shilgan qo'shilmalari ham shifobaxsh.

Suvda eriydigan vitaminlar tabiiy ravishda ba'zi oziq-ovqatlarda mavjud yoki oziq-ovqat qo'shimchalari shaklida bo'ladi. Demak, ular o'rniga o'rik mahsulotlarini uzliksiz, lekin me'yorida iste'mol qilish qator kasalliklarning, jumladan, oshqozon kasalliklari, yurak qon-tomir va asab kasalliklari, nafas olish yo'llari, anemiya shakllanishi va rivojlanishining oldini olish, immunitet tizimini saqlash, koronar sindromlar va insultning oldini olish, foliy kislotasi yetishmovchiligidan kelib chiqadigan asab tizimi buzilishi, biriktiruvchi muskul va suyaklarning normal ishlashi, biriktiruvchi muskul va suyaklarning normal ishlashi, venoz trombozi, o'pka emboliyasi va hokazolarning oldini olar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Steven A., Cohen Daviel J. Amino Acid Analysis Utilizing Fhenylisotiocyanata Derivatives. // Analytical Biochemistry. 1988. -V.17. No.1. – P. 1-16.

2. [Druggist's Digest of New Formulas, Recent Pharmaceutical Developments, and Other Professional Data, Jour. ADA Volume 3, ISSUE 1, P28-29, January 01, 1942: «NIACIN IS NEW NAME FOR NICOTINIC ACID: Federal Security Administrator Paul V.McNutt has accepted the recommendation of the Committee on Food and Nutrition of the National Research Council that the term "niacin" be adopted as a synonym for nicotinic acid and the term "niacin amide" as a synonym for nicotinic acid amide.»](#)

3. [Fact Sheet for Health Professionals – Vitamin C. Office of Dietary Supplements, US National Institutes of Health \(11 февраля 2016\).](#)

4. Hemila H, Chalker E (January 2013). "Vitamin C for preventing and treating the common cold". The Cochrane Database of Systematic.

5. Витамин С для профилактики и лечения простуды. *Cochrane Library*.
6. Nathan N., Patel P. (November 10, 2021). "Why is topical vitamin C important for skin health?". Harvard Health Publishing, Harvard Medical School. Retrieved October 14, 2022.